QASHQADARYO VILOYATI
QARSHI SHAHRI HOKIMINING

Q A R O R I

180100, Qarshi shahri, I.Karimov ko‘chasi, 60-uy. Faks (+99875)223-08-93, qarshi.sh@exat.uz

2021 - yil 24 - sentabr 415-4-69-Q/21 Qarshi shahar hokimligi

Shaharda o‘simlik dunyosi ob’ektlaridan umumiy foydalanishni tartibga solishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunining 8,12-moddalariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 20 oktabrdagi 290-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘simlik dunyosi ob’ektlaridan foydalanish va o‘simlik dunyosi ob’ektlaridan foydalanish sohasida ruxsat berish tartib-taomillaridan o‘tish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 7-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilsh Davlat qo‘mitasining 2021 yil 15 maydagi 03-06-213-son kelishuv xati hamda Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Quyidagilar:

O‘simlik dunyosi ob’ektlaridan umumiy foydalanish tartibi (keyingi o‘rinlarda -Tartib)1-ilovaga;

Jismoniy shaxslarning hayotiy zarur ehtiyojlari uchun yovvoyi holda o‘suvchi o‘simlik dunyosi ob’ektlarini, ularning qismlari, mevalari va mahsullarini atrof tabiiy o‘sish muhitidan umumiy foydalanish uchun ajratib olish me’yorlari (keyingi o‘rinlarda – Me’yorlar) 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2.Shahar ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish nazorat inspeksiyasi boshlig‘i (A.Abduraximov) tegishli tashkilotlar bilan birgalikda jismoniy shaxslar

tomonidan o‘simlik dunyosi ob’ektlaridan umumiy foydalanishda ushbu qaror bilan tasdiqlangan Tartib va Me’yorlarga amal qilinishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

3. Ushbu qaror “Voha” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

4. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari X.Turdiev zimmasiga yuklansin

Қарши шахари ҳокими **N.Xolboyev**